

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Matematika instituti

O'zbekiston Fanlar akademiyasi V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti — O'zbekistonda matematikaga oid tadqiqotlar olib boradigan va ularni muvofiqlashtiradigan ilmiy tadqiqotlar markazi. 1943-yilda Toshkentda tashkil etilgan, 1954-yildan uning asoschilaridan biri Romanovskiy Vsevolod Ivanovich nomi bilan atala boshladi. Dastlab Matematika va mexanika instituti deb nomlanib, matematika, mexanika, nazariy geofizika, seysmologiya bo'yicha nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borilgan. 1964-yilda Matematika institutining bo'limlari asosida Mexanika va inshootlarning seysmik mustahkamligi instituti, Kibernetika instituti, seysmologiya instituti tashkil bo'ldi. Hozirgi kunda Matematika institutida algebra va analiz, differensial tenglamalar, ehtimollar nazariyasi, matematik statistika, hisoblash matematikasi, matematik fizikaning noklassik tenglamalari, amaliy matematika bo'limlari bor. Institutda 60 dan ortiq ilmiy xodim faoliyat ko'rsatadi. Institutda jahonga mashhur ehtimollar nazariyasi va matematik statistika, xususiyl hosila differensial tenglamalar, funksional analiz ilmiy maktablari yaratilgan. Bu maktablarning tashkil bo'lishi va rivojlanishiga akademik V. I. Romanovskiy, T. A. Sarimsokov, S. H. Sirojiddinov, I. S. Arjanix hissa qo'shgan bo'lsa, hozirgi kunda akademik T. J. Jo'rayev, M. S. Salohiddinov, Sh. A. Ayupov, T. A. Azlarov, Sh. Q. Farmonovlar ularning davomchilari. Institutda 40 dan ortiq fan doktori, 300 dan ko'proq fan nomzodlari tayyorlangan. Institut xodimlarining tadqiqotlari 75 monografiya, 130 ilmiy to'plamlarda, 10 dan ortiq darsliklarda, shuningdek, mamlakatimizdagi va xorijdagi obro'li ilmiy jurnallarda bosilgan ko'plab maqolalarida aksini topgan. Matematik olimlar ishlarini yorituvchi "O'zbek matematika jurnali" institut tomonidan nashr qilinadi, maktab o'quvchilari uchun mo'ljallangan "Fizika, matematika va informatika" ilmiyuslubiy jurnali institut olimlari otalig'ida chop etiladi.

